

Farzand tarbiyasini tashkil etish bosqichlari va usullari

Mavluda Ismoiljon qizi Ismoiljonova
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali tarbiya qachondan va qanday olib borilganda samaraliroq bo'lishi va uning olib borish usullari xaqidagi mulohazalar hayotiy misollar orqali bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: tarbiya, irsiyat, qobiliyat, individ, go'dak, muxit

Stages and methods of child-rearing

Mavluda Ismailjan kizi Ismailjonova
Namangan State University

Abstract: In this article, when and how education is more effective, and the methods of its implementation are discussed through real life examples.

Keywords: education, heredity, ability, individual, child, environment

Tarbiya pedagogika fanining muhim tarkibiy qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o'rganadi. Tarbiya - bir qarashda unchalik ham qiyin bo'lmagan tabiiy jarayon. Ammo bu so'zning mohiyatini anglagan inson uni naqadar murakkab va nozik jarayon ekanligini yaxshi anglaydi. Bugungi kundagi hayotga yangicha siyosiy va iqtisodiy nuqati nazardan yondashish o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi bilan bog'lik jarayonni ham qaytadan ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Tarbiya - muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Boshqacharoq talqin etilganda, tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayoni hisoblanadi. Insonni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda uni bosqichlarga bo'lish samarali hisoblanadi. Tarbiyani qachondan boshlash va tizimlashtirish, bosqichlarga bo'lish kerak?

Bu muammoga javobni qisqacha hikoyadan izlab ko'ramiz.

Kunlarning birida Ibn Sino oldiga bir yigit kelibdi va shunday debdi: "Ey muxtaram zot men yaqindagina farzandlik bo'ldim. Meni farzandimning kelajagi, tarbiyasi xaqidagi savollar qiynamoqda. Aytingchi farzand tarbiyasini necha yoshdan boshlamoq afzal?" deb savol beribdi. Ibn Sino hazratlari esa undan, - farzandingiz

dunyoga kelganiga qancha bo'ldi? - deb so'rabdi. Yigit: - uch oy bo'ldi, - deb javob beribdi. Buni eshitgan Ibn Sino hazratlari - bolani tarbiya qilishda uch oy kechikibsizlar deb javob beribdi.

Ushbu hikoyadan shuni xulosa qilish mumkinki, buyuk qomusiy olim Abu Ali ibn Sino bola tarbiya qilishni u dunyoga kelishi bilanoq boshlash kerak degan pedagogik g'oyani ilgari surgan. Bu o'sha davr uchun eng ilg'or va yetuk pedagogik g'oya bo'lgan bo'lsada, bugungi kunga kelib bu fikr o'z salmog'ini birmuncha yo'qotdi. Chunki bugungi kundagi pedagogik tadqiqot va izlanishlar bola tarbiyasini u tug'ulishi bilanoq emas balki chaqaloq hali dunyo yuzini ko'rmasidan avval, ona uni o'z vujudida ko'tarib yurgan vaqtdan boshlab balki undan ham avvalroq boshlamoq lozim. Bu jarayonni uch bosqichga bo'lamiz:

1. Barkamol farzand tug'ilishi uchun o'ziga munosib juft tanlash bosqichi. Avvalo turmush qurish arafasida bo'lgan yoshlar o'zlariga juft tanlashda uning sog'lomligi, bilim darajasi, axloq-odobi va eng asosiysi o'zlari uchun umr yo'ldosh emas, o'z farzandlariga ota yoki ona tanlayotganliklarini anglagan holda turmush o'rtoq tanlashlari farzand tarbiyasida poydevor bo'lib xizmat qiladi.

2. Farzandni tug'ilmasidan avval tarbiyalash bosqichi. Dunyoga kelishi kutilayotgan farzandning tarbiyasida ota-ona xamkorlikda bardavom bo'lmoqlari lozim. Qanday deysizmi? Homilador ayol o'zini yomon narsalardan, xunuk so'zlardan, gunox ishlardan, o'girlik ne'matlardan saqlamog'i lozim. Halol rizq bilan ozuqalanmog'i, bunda esa oila boshlig'i ehtiyotkor bo'lmog'i talab etiladi. Chunki ona qornidagi go'dak manashu nematlar bilan oziqlanadi va butun vujudi bunyod bo'ladi. Homiladorlik davrida xalol rizq bilan oziqlanish chiroyli narsalarga qarash, chiroyli mashg'ulot bilan shug'ullanish, hayollar, orzular qilish, hayolan va qalban u bilan suhbatlashish toza havoda tabiat qo'ynida sayr qilish farzandni siz o'ylagandek barkamol, keng dunyo qarash, namunali xulq egasi bo'lib shakllanishida dastlabki va eng muhim qadamdir.

3. Tug'ilgandan so'ng farzandni tarbiyalash bosqichi. Qadim zamonlardan buyon noyob qobiliyat, eng avvalo irsiy, tabiat in'omi deb hisoblanadi. Bizga: "Motsart uch yoshida pianino chalgan" yoki "Jon Styuart Mil lotin tilidagi mumtoz adabiyotlarni xam aynan shu yoshda o'qigan" desalar ko'pchiligimiz oddiygina: "Albatta axir ular daxoku deb qo'ya qolamiz". Ammo Motsart va Millning go'daklik chog'idagi Hayoti borasida olib borilgan chuqur taxlillardan ma'lum bo'ldiki, ularning otalari o'z farzandlari buyuk shaxs sifatida kamol topishi uchun natijali tarbiya usullaridan foydalanganlar. Motsart va Mill ham daxo bo'lib dunyoga kelishmagan, boshqa bolalar kabi oddiy oilada oddiy insonlar davrasida ulg'aydilar. Faqat ularning qobiliyati go'daklikdanoq yaratilgan qulay shart- sharoit va berilgan samarali ta'limdan to'liq rivojlangan. Ayni paytda bola tarbiyasini uning bolalar bog'chasiga chiqish davriga qadar qoldirish juda kechdir. Chunki bolaning aqliy

qobiliyatlarining rivojlanish davri uch yoshgacha jadallik bilan rivojlanadi. Aynan shu davrda miya xujayralari rivojlanish davri bo'lib, bu davrda olingan bilimlar toshga o'yilgan kabi miyaga muxirlanadi.

Tadqiqotlarga qaraganda inson bolasi hayvon bolasidan ancha o'jiz bo'lib tug'uladi. U faqat baqirib yig'lash va sut emishni biladi. Hayvonlar masalan, kuchuk, maymun yoki otning bolasi dunyoga kelgan chog'idan o'rnidan turishi, yurishi, onasiga yopishishi mumkin. Zoologlarning aytishicha yangi tug'ilgan chaqaloq endi dunyoga kelgan xayvon bolasidan 10-11 oylik orqada qoladi. Buning sabablaridan biri insonning, aniqrog'i homilador ayolning yurishdagi xolatidir. Odam vertikal yurganida bachadondagi xomila o'zining to'liq rivojlanish holatiga yetmaydi, shuning uchun ham chaqaloq o'jiz bo'lib tug'uladi. Insonlar tug'ilganlaridan so'ng o'z tanalaridan foydalanishni o'rganadilar. Ya'ni harakatlanish, emaklash, yurish kabilarni. Xuddi shu tarzda ular miya imkoniyatlaridan foydalanishni ham o'rgana boshlaydilar. Hayvon bolasining miyasi tug'ilganida shakllanib ulgurgan bo'lsa, yangi tug'ilgan chaqaloqning miyasi toza qog'oz kabidir ana shu qog'ozga nima yozilishi bola kelajagini belgilab beradi.

Hujayralar aro eng faol shakllanadigan davr - bu bolaning uch yoshgacha bo'lgan davridir. Tug'ilgandan keyin birinchi olti oy ichida miyaning salohiyati 50 foizga, uch yoshgacha esa 80 foizga yetadi. Albatta bu uch yoshdan keyin bola miyasi rivojlanishi to'xtaydi degani emas. To'rt yoshdan boshlab miyaning boshqa qismidagi xujayralar rivojlana boshlaydi. Ya'ni uch yoshgacha orqa miya, to'rt yoshdan boshlab miyaning boshqa qismlari peshona bo'limlari rivojlana boshlaydi.

Bola xayotining ayniqsa birinchi yillarida u bilan qattiqqo'l va muloyim bo'lmoq kerak (albatta qattiq qo'llik muloyimlik bilan uyg'un bo'lmog'i kerak, aks xolda bola ruxiyatini shikastlab qo'yishingiz mumkin, u bilan kattalar kabi suhbatlashib xatosini tushuntiring, xali aqli yetmaydi tushunmaydi degan o'ydan yiroqlashing). Uch yoshdan keyin esa o'z menini taniy boshlaganida uning irodasini xurmat qilishni o'rganmoq zarur. Aniqroq yondashadigan bo'lsak go'daklikda xech narsani tushunmaydi deb tarbiyada be'etiborlik qilib aralashmaslik, keyinroq esa unga bosim o'tkazish bolada irodasizlik, qo'rqqoqlik, fikrini dadil bayon eta olmaslik, o'z qobiliyatlarini ko'rsatishdan iymanish natijada qobiliyatlarning so'nib borishi kabi salbiy oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, temirga sovib bo'lgandan keyin shakl berishga urinish juda kechdir. Chunki metal qattiqlashib ulgurgan bo'ladi. Shuning uchun temirni qizig'ida bosgan ma'qul.

Unutmang! Bolalar bilan hech qachon chuchuk tilda gaplashmang. Bir frantsuz ayol o'z qizini turmushga berayotganda bo'lajak kuyoviga "Qizimning sarposi yo'q, ammo u frantsuz tilida qoyilmaqom gaplashadi" dedi. Bunday g'urur taxsinga loyiq va men xar bir ona farzandiga o'z ona tilini hurmat qilishni, sevishni u bilan fahrlanishni, boshqa davlat tillarini o'rganish va hurmt qilish asnosida o'z tilini

ulardan ustun ko'rish va mukammal, ravon gaplasha olish, fikrini to'laqonli yetkaza olish qobiliyatini shakllantirishlarini so'rgan bo'lar edim.

Shifokor Shinichi Suzuki shunday degan: "Uyga kelganingizda farzandlaringizni oldingizga olib yuzlariga sinchiklab qarang. Shunda siz o'z oilaviy munosabatlaringiz tarixini o'qib olasiz". Farzandingiz siz kutgandek barkamol bo'lishi uchun ko'p narsa shart emas eng avvalo er-xotin orasida mehrli munosabat va oilada yoqimli ruxiy muxit yaratilishi zarur. Agar farzand o'z otasini kam ko'rsa va shu xam faqatgina gap eshitish uchungina bo'lsa, u holda bola o'z otasidan uzoqlashishni boshlaydi. Ikki uslub - rag'batlantirish va jazolash. Bularning ikkinchisi samaraliroq tuyilsada, aslida bunday emas. Jazolash bolada teskari munosabatni - ochiq oydin bo'ysunmaslikni keltirib chiqarishi mumkin. Gap shundaki maqtov va jazolashdan extiyotkorona foydalanish lozim. Farzandingizning qobiliyatlarini rivoji maqtov va jazolash usullaridan qanchalik muvaffaqiyatli foydalana olishingizga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyayev "Yangi o'zbekiston strategiyasi" 2021 yil
2. Masaru Ibuka "Uchdan keyin kech" 2021
3. Pedagogika tarixi /Tuzuvchilar/: K.Hoshimov, M.Inomova, S.Nishonova, R. Hasanov T.; "O'qituvchi" 1996.
4. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. Toshkent, "O'qituvchi", 1995
5. www.fayllar.org
6. Kamolova, A., & Ergasheva, G. S. Q. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o'rganishning o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari. *Science and Education*, 3(12), 590-592.
7. Kamolova, A. O. Q., & Husaynova, S. I. (2023). O'smirlar o'rtasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari. *Science and Education*, 4(2), 969-972.
8. qizi Kamolova, A. O., & Husaynova, S. I. (2023). O'smirlar o'rtasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari. *Science and Education*, 4(2), 969-972.